



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
WOMEN'S ACTIVISM AND SOCIAL CHANGES IN CENTRAL
ASIA

MARKAZIY OSIYODA AYOLLAR FAOLLIGI VA IJTIMOIIY
O'ZGARISHLAR
ЖЕНСКАЯ АКТИВНОСТЬ И СОЦИАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Qodirova Durдона Qobuljon qizi


*Guliston Davlat Universiteti Filologiya fakulteti Tarjima
nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayollar faolligi va ijtimoiy o'zgarish jarayonlari tarixiy, siyosiy va iqtisodiy kontekstda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqillikdan keyingi davrda gender siyosati va ta'lim islohotlari ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil bo'lgan. Bundan tashqari, mintaqa davlatlarida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda institutsional mexanizmlarning takomillashuvi ayollarning siyosiy va iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini tizimli ravishda kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, mehnat bozori va tadbirkorlik sohasida yaratilayotgan imkoniyatlar ayollarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlab, ularning ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi rolini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi ayollarning jamoatchilik nazorati hamda ijtimoiy tashabbuslarda faol qatnashishiga yangi platformalar yaratmoqda.*

Kalit so'zlar. *Gender tenglik, Markaziy Osiyo, ayollar faolligi, ijtimoiy transformatsiya, siyosiy ishtirok, iqtisodiy rivojlanish.*

Abstract. *This article analyzes women's activism and social change processes in Central Asian countries in a historical, political, and economic context. The results of the study show that gender policy and educational reforms in the post-independence period have been an important factor in increasing women's social activism. In addition, the regulatory and legal documents adopted in the countries of the region and the improvement of institutional mechanisms serve to systematically expand women's participation in political and economic processes. In particular, the opportunities created in the labor market and entrepreneurship are strengthening women's economic independence and enhancing their role in social decision-making. At the same time, digital transformation and the development of civil society institutions are creating new platforms for women to actively participate in public oversight and social initiatives.*

Keywords: *Gender equality, Central Asia, women's activism, social transformation, political participation, economic development.*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Аннотация. В данной статье анализируется женский активизм и процессы социальных изменений в странах Центральной Азии в историческом, политическом и экономическом контексте. Результаты исследования показывают, что гендерная политика и образовательные реформы в постколониальный период стали важным фактором повышения социальной активности женщин. Кроме того, принятые в странах региона нормативно-правовые акты и совершенствование институциональных механизмов способствуют систематическому расширению участия женщин в политических и экономических процессах. В частности, возможности, созданные на рынке труда и в сфере предпринимательства, укрепляют экономическую независимость женщин и повышают их роль в принятии социальных решений. В то же время цифровая трансформация и развитие институтов гражданского общества создают новые платформы для активного участия женщин в общественном контроле и социальных инициативах.

Ключевые слова: гендерное равенство, Центральная Азия, женский активизм, социальные преобразования, политическое участие, экономическое развитие.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayollarning jamiyatdagi o‘rni sezilarli darajada o‘zgardi. Bu jarayon global modernizatsiya, milliy islohotlar va ijtimoiy ong evolyutsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, mustaqillikdan keyingi davrda mintaqa davlatlarida gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi shakllandi va institutsional mexanizmlar yaratildi. Masalan, O‘zbekistonda 2019-yilda gender tenglik bo‘yicha maxsus qonun qabul qilinib, parlamentda ayollar ulushi 30 foizdan oshdi. Qozog‘istonda kichik va o‘rta biznes subyektlarining qariyb 40 foizi ayollar tomonidan boshqarilmoqda. Oliy ta‘lim muassasalarida talaba-qizlar ulushi ko‘plab mamlakatlarda 45–60 foiz oralig‘iga yetdi. Shuningdek, ayollarning nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlaridagi faolligi ortib, ijtimoiy tashabbuslarning ko‘lami kengaydi. Bu jarayonlar jamiyatda gender rollarining qayta talqin qilinishiga zamin yaratmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy usul, tarixiy-komparativ metod hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlilidan kompleks tarzda foydalanildi. Statistik tahlil orqali mintaqa davlatlarida ayollar faolligiga doir miqdoriy ko‘rsatkichlar o‘rganildi, qiyosiy usul yordamida esa mamlakatlar kesimida o‘xshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Tarixiy-komparativ metod ayollar mavqeining turli davrlardagi evolyutsiyasini izchil tahlil qilish imkonini berdi, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili esa gender siyosatining huquqiy asoslarini baholashga xizmat qildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va xolisligini ta‘minlashga imkon yaratdi.

Markaziy Osiyo davlatlari — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston — tarixan an‘anaviy qadriyatlarga asoslangan jamiyat sifatida shakllangan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Biroq XXI asrda globallashuv, modernizatsiya va demokratik islohotlar natijasida ayollarning jamiyatdagi o'zni sezilarli darajada o'zgartirdi.


Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ayollar faolligi jamiyat taraqqiyotining muhim indikatoriga aylangan. Gender tengligini ta'minlash nafaqat ijtimoiy adolat masalasi, balki iqtisodiy rivojlanish omili hamdir.

Markaziy Osiyoda ayollar faolligi va ijtimoiy o'zgarishlar masalasi mintaqaning tarixiy taraqqiyoti, siyosiy transformatsiyasi va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan murakkab va ko'p qatlamli hodisadir. Ushbu mintaqada ayollarning jamiyatdagi o'zining qadimgi davrlardan boshlab turlicha talqin qilingan bo'lib, ayrim tarixiy bosqichlarda ular siyosiy va harbiy yetakchilik darajasiga ko'tarilgan, boshqa davrlarda esa an'anaviy ijtimoiy rollar bilan chegaralangan. Masalan, qadimgi davrda Tomiris kabi shaxslar ayollarning siyosiy va harbiy salohiyati yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Ko'chmanchi turkiy jamiyatlarda ayol oila iqtisodiyotining faol subyekti bo'lib, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo jarayonlarida ishtirok etgan. Bu holat ayollarning nisbatan mustaqil ijtimoiy maqomga ega bo'lganini anglatadi. Islom sivilizatsiyasi kirib kelgach, ayollarning huquqiy maqomi diniy-me'yoriy tizim asosida tartibga solindi, biroq bu ularning jamiyatdan to'liq chetlatilganini anglatmagan; aksincha, ayrim tarixiy shaxslar, jumladan Bibixonim kabi ayollar siyosiy va madaniy jarayonlarda faol rol o'ynaganini ko'rish mumkin.

XX asrda Sovet modernizatsiyasi Markaziy Osiyoda ayollar hayotida tub burilish yasadi. Savodxonlik kampaniyalari, ishlab chiqarishga keng jalb etish siyosati va gender tenglik g'oyasining targ'ib qilinishi natijasida ayollar ta'lim va mehnat bozoriga faol kirib bordi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1980-yillarga kelib ayollar savodxonligi deyarli to'liq darajaga yetdi va ular sog'liqni saqlash hamda ta'lim tizimining asosiy qismini tashkil eta boshladi. Biroq bu jarayon ideologik xarakterga ega bo'lib, milliy an'analar bilan murakkab o'zaro ta'sirda rivojlandi. Mustaqillikdan keyingi davr esa yangi ijtimoiy transformatsiya bosqichini boshlab berdi. Milliy davlatchilik qurilishi, bozor iqtisodiyotiga o'tish va global integratsiya jarayonlari ayollarning jamiyatdagi rolini qayta belgilashga olib keldi. O'zbekistonda 2019-yilda gender tenglik bo'yicha qonunning qabul qilinishi va parlamentda ayollar ulushining 30 foizdan oshishi siyosiy ishtirokning kengayotganini ko'rsatadi. Qozog'istonda kichik va o'rta biznes subyektlarining qariyb 40 foizi ayollar tomonidan boshqarilayotgani iqtisodiy faollik ortayotganidan dalolat beradi. Qirg'izistonda fuqarolik jamiyati institutlarida ayollar yetakchilik qilayotgan tashabbuslar ijtimoiy ong o'zgarayotganini namoyon etadi.

2020-yil 23-dekabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining ilk uchrashuvi videokonferensiya shaklida o'tkazildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati ma'lum qildi.

Tadbirda mintaqaning besh davlati vakillari, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi hamda BMTTDning Yevropa va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

MDH mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy byurosi rahbarlari ishtirok etdi. O'zbekiston nomidan Senat Raisi Tanzila Narbayeva qatnashdi.

Uchrashuvda xotin-qizlarning davlatlararo hamkorlikdagi o'rni, ularning davlat va jamoat boshqaruvidagi ishtiroki, gender tenglikni ta'minlash hamda ayollar huquqlarini himoya qilish masalalari muhokama qilindi. O'zbekistonda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatda gender tenglik siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayollarni mas'ul lavozimlarga tayinlash, ularni ish va uy-joy bilan ta'minlash, jamiyatdagi rolini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar ijobiy baholandi.

Tadbir davomida "Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollari muloqoti" norasmiy mexanizmi mintaqada tinchlik, barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi qayd etildi. BMT vakillari hamkorlikni kengaytirish va tajriba almashishga tayyor ekanini bildirdi.

2021-yilda mazkur muloqotga raislik qilish Senat Raisi T. Narbayevaga topshirildi. Asosiy maqsad — tajriba almashish va ayollar rolini kuchaytirishga qaratilgan qarorlarni birgalikda ishlab chiqishdir.

Ayollar qudrati indeksi (Women's Power Index) ayollarning davlat va siyosiy boshqaruvdagi vakilligini baholaydi. Tarixan hokimiyat asosan erkaklar qo'lida bo'lgan bo'lsa-da, gender tengligi oshib borishi natijasida ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni mustahkamlanmoqda.

Ayollarning barcha sohalarida teng ishtiroki XXI asr muammolarini hal qilish uchun muhim hisoblanadi. Pekin deklaratsiyasi hamda 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari ayollarning qaror qabul qilish jarayonlarida to'liq va samarali ishtirokini ta'minlashni talab qiladi.

BMT tomonidan ishlab chiqilgan Ayollar qudrati indeksi 193 davlatda gender tengligining siyosiy ishtirok darajasini baholaydi. Indeks 5 ta asosiy ko'rsatkich asosida aniqlanadi: siyosiy paritet, Vazirlar Mahkamasi, milliy qonun chiqaruvchi organlar, deputatlikka nomzodlar va mahalliy qonun chiqaruvchi organlardagi ayollar ulushi.

Ushbu indeks ayollarning siyosiy boshqaruvdagi son jihatidan Ayollar qudrati indeksi (Women's Power Index) bo'yicha O'zbekiston 2023-yil 1-iyun holatiga ko'ra 193 mamlakat orasida 75-o'rinni egallab, Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni band etgan. Siyosiy paritet ko'rsatkichi 30 ballni tashkil etadi.

Vazirlar Mahkamasida ayollarning ulushi 5 foizni tashkil qiladi. Milliy qonun chiqaruvchi organlarning quyi va yuqori palatalarida ayollar egallagan o'rinlar ulushi 30 foizga teng. So'nggi saylovlarda parlamentga ro'yxatga olingan ayol nomzodlar ulushi esa 41 foizni tashkil qilgan.

Biroq mahalliy qonun chiqaruvchi organlar ko'rsatkichi bo'yicha biror ma'lumot keltirib o'tilmagan.

Ta'lim sohasida ham sezilarli siljishlar kuzatilmoqda: mintaqada davlatlarida oliy ta'lim olayotgan talabalarning 45–60 foizini qizlar tashkil etadi. Bu esa kelajakda malakali





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kadrlar tarkibida ayollar ulushi yanada oshishini anglatadi. Raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishi ayollarga o'z fikrini erkin bildirish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va global tarmoqlarga chiqish imkonini bermoqda. Shaxsiy qarashimcha, aynan raqamli transformatsiya Markaziy Osiyoda ayollar faolligini tezlashtirgan eng muhim omillardan biridir, chunki u an'anaviy cheklovlarni nisbatan yumshatib, yangi imkoniyatlar maydonini yaratdi. Shu bilan birga, muammolar ham saqlanib qolmoqda: mehnat bozorida gender tafovuti, maoshlar o'rtasidagi farq, qishloq hududlarida imkoniyatlarning cheklanganligi va stereotip qarashlar hali ham to'liq bartaraf etilgani yo'q.

Ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida ayollar faolligi nafaqat statistik ko'rsatkichlarda, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimidagi siljishlarda ham namoyon bo'lmoqda. Ayolning jamiyatdagi roli endilikda faqat oilaviy vazifalar bilan emas, balki professional, intellektual va siyosiy faoliyat bilan ham bog'lanmoqda. Menimcha, Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish strategiyasi ayollarning to'liq ijtimoiy integratsiyasiz amalga oshmaydi, chunki jamiyatning yarmi bo'lgan qatlamning salohiyatidan to'liq foydalanmaslik umumiy taraqqiyot sur'atini pasaytiradi. Shunday ekan, gender siyosatini takomillashtirish, ta'lim va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda ijtimoiy stereotiplarni kamaytirish mintaqaning uzoq muddatli barqaror taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib qoladi.

Tadqiqot natijalari.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollarning siyosiy vakilligi oshgani sari ijtimoiy siyosat samaradorligi ham ortmoqda. Ta'lim darajasining oshishi iqtisodiy mustaqillikka olib kelmoqda. Parlamentdagi ayollar ulushi ortgan. Oliy ta'limdagi qizlar soni keskin oshgan. Tadbirkor ayollar soni ko'paygan. Markaziy Osiyoda ayollar faolligi ijtimoiy transformatsiyaning asosiy indikatorlaridan biridir. Kelgusida gender siyosatini yanada takomillashtirish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Markaziy Osiyoda ayollar faolligi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshmoqda. Davlat siyosatida gender tengligini ta'minlash muhim yo'nalish sifatida belgilangan. Ayollarning parlament va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ortib borayotgani ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Ayollar qudrati indeksi ham bu jarayonlarning amaliy natijalarini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, mintaqaviy hamkorlik doirasida yetakchi ayollar muloqotining yo'lga qo'yilishi tajriba almashish va o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayollarning jamiyat hayotidagi faolligi kuchaygani sari mamlakatlar rivoji ham jadallashadi. Kelgusida bu yo'nalishdagi islohotlarni davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.





1. Xabar.uz. Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining muloqoti haqida ma'lumot // www.xabar.uz □
2. Index.uz. Ayollar qudrati indeksi (Women's Power Index) bo'yicha ma'lumotlar // www.index.uz □
3. Wikipedia. Women's Power Index // 4. <https://en.wikipedia.org> □
4. Wikipedia. Gender equality // <https://en.wikipedia.org> □
5. Wikipedia. Central Asia // <https://en.wikipedia.org> □
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy sayti // <https://senat.uz> □
7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) rasmiy sayti // <https://www.un.org> □
8. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) rasmiy sayti // <https://www.undp.org> □

